



THE IMPORTANCE AND RELEVANCE OF THE EVENING FOR THE FIFTH-GRADE THE MEANING OF THE NATIVE LANGUAGE TONGUES

Moxignul Alimardonova

Karshi State University, Pedagogical Institute, 1st Year Master's Degree in Uzbek
Language and Literature

Annotation

In the article, the fifth-grade was discussed with the advantages of the methods provided for the exercises given for the Mother tongues. As you know, listening to a speech in a native language is formed and in the integrity of the content. Lexic-grammatical events are well absorbed and in other words the lexical and grammatical skills of understanding should be carefully formed. Also, foreign language

To distinguish the sound (sound, sound combinations and tones)

The skill should be created. The article also noted that these aspects are noted by these aspects.

Keywords: Pedagogy, interactive method, native language, student, method.

Аннотация

В статье пятый сорт обсуждался с преимуществами методов, предусмотренных упражнениями, приведенными для матерью языков. Как вы знаете, прослушивание речи на родном языке формируется и в целостности содержания. Лексико-грамматические события хорошо поглощены, а также, другими словами, лексические и грамматические навыки понимания следует тщательно обращаться. Также иностранный язык

Различать звук (звуковые, звуковые комбинации и тона))

Навык должен быть создан. Статья также отметила, что эти аспекты отмечены этими аспектами.

Ключевые слова: педагогика, интерактивный метод, родной язык, студент, метод.

Annotatsiya

Maqolada beshinchi sinf ona tili mashg`ulotlari uchun berilgan mashqlar doirasida o`qib tushinish metodlarining ahamiyati afzalliklari xususida so`z yuritildi. Ma`lumki, Ona tilidagi nutqni tinglab tushunishda shakl va mazmun yaxlit ravishda idrok qilinadi. Mazmunni ilg`ash (payqash) uchun leksik-grammatik hodisalarni



yaxshi o'zlashtirgan, boshqacha aytganda tinglab tushunishning leksik va grammatik ko'nikmalari puxta shakllangan bo'lishi kerak. Shuningdek, chet tili tovush tomonini (tovush, tovush birikmalari va ohangni) farqlay olish ko'nikmasi hosil qilinmog'i lozim. Maqolada ham shu jihatlar alohida ta'kidlanadi.

Kirish

Tinglovchi (auditor) va so'zlovchi (notiq) qo'llaydigan til birliklari muvofiq tushsa, tushunish osonlashadi. Bu o'z navbatida til tajribasi bilan bog'liq masaladir. Tinglab tushunish uch bosqichli faoliyat bo'lib, *umumiy eshitish idroki* (akustik appersepsiya), so'zlarning tovush tomonini (*fonematik*) *farqlash* va *mohiyatini anglash* orqasida nutqdagi mazmun idrok etiladi, bilib olinadi va tushuniladi. Nutq faoliyatining turi va malaka hisoblanmish tinglab tushunish ta'lim maqsadi va vositasi ekanligi ma'lum. Bu o'rinda ikki toifadagi, ya'ni, bir tomondan, so'z orqali (tildagi nuqiy tajribaga suyangen holda) va ikkinchidan narsa yordamida (hayotiy tajriba, nutq vaziyatini bilish tufayli) tushuna olishning tegishli farqiga yetish kerak. Binobarin, chet tili ta'limining dastlabki bosqichida tavsiya qilinadigan nutq mavzu va vaziyatlari o'quvchilarga tanish, oldindan ma'lum, til materialida esa ular uchun butunlay yangi, notanishdir. Tinglash uchun matn (audiotekst) larni tanlashda yoki yaratishda gap ko'p. O'quvchilarning yoshiga mos, qiziqishini uyg'otadigan, mantiqan aniq nutqning monolog va dialog shaklini o'z ichiga olgan, axborotga boy audiotekst o'z tinglovchisiga yoqib tushadi.

Adabiyotlat tahlili va metodologiyasi

Muhim masalalardan yana biri tinglangan matnni tushunish qay sabablarga ko'ra osonlik yoki qiyinchilik bilan ro'y berishini aniqlashdir. Qiyinchiliklar va ularning sabablarini bilish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tinglab tushunish qiyinchiliklari

- a) til shakliga oid (omofon, majhul fe'l);
- b) mazmunga oid (fakt va ularning og'liqligi);
- c) idrok shart-sharoitlari (nutq tezligi, ohang...);
- d) nutq shakli bo'yicha (monolog, diolog);
- e) til materialida (leksika, grammatika, talaffuz);
- f) audiotekst tuzilishida (jumla, abzast, kontekst...);
- g) va boshqalar (bir marta, tinglash, jonli va yozuvdagi nutq);

Nutq faoliyatining asosiy turlaridan sanalmish tinglab tushunish ham bilishga intilishdir. Har qanday bilish jarayoning esa hissiy va mantiqiy tomonlari mavjud.



Tiglab tushunishning mexanizmlari majmui fanda yetarlicha o'rganilgan. Birinchi mexanizmni ruhshunoslar nutqni idrok etish deb nomlagan. Muayyan sezgilar qo'zg'alishi nazarda tutiladi. Begona tilini bilmagan kishi uni tushunmaydi ham, balki bu tildagi nutqni eshitish qobiliyatidan mahrumdir. Ushbu mexanizm eshitish xotirasi mexanizmi bilan chambarchas bog'liq. Idrok qilish chog'ida nutqiy parchani yodda saqlash audiotekstni tushuna olish imkonini yaratadi.

Mulohaza va Takliflar

Tayyorlov mashqlarining obyeki akustik signal (ya'ni quloqqa yetkaziladigan so'z, jumla, gaplar majmui) bo'lib, nutqiy mashqlarda esa o'quvchi mazmunni egallash bilan band bo'ladi. Nutq mashqlarining uch bosqichli ekanligi fanda aniqlangan: axborotni eshitishga tayyorgarlik, uni eshitish va eshitganini tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Tinglab tushunish mashqlarini amalda bajarish bo'yicha ayrim tavsiyalar keltirish joizdir. Ta'limning birinchi bosqichi boshlang'ich pallani va o'rta bosqichning bir qismini, ya'ni yangi o'quv planiga muvofiq **I V- VI** sinflarni o'z ichiga olishi kerak. Bu bosqichda asosiy etibor dialog va monolog nutqlarga muvofiq ravishda og'zaki tushunishni shakllantirishga qaratilishi kerak. Kontekstga yoki vaziyatga tayanib kam uchraydigan so'zlarni tushunish ko'nikmasi bundan mustasnodir, chunki, yuqorida aytilganidek, bu ko'nikma ancha qiyindir. Bundan tashqari, fahmlab bilish ko'nikmasi predmetli mantiqiy tushunish bilan bog'liq bo'lib, kontekstlarning kengaytirilishini taqozo etadi. Boshqacha aytganda, bu bosqichda tinglab tushunishni shakllantirishga tayyorgarlik ko'riladi. Hozirgi zamon metodikasi avval diolog nutqni, keyin esa, monolog nutqni shakllantirish haqidagi to'g'ri metod vakillari tezisini rad etganligi sababli ekspressiv og'zaki nutqning bu turlarini o'rgatish parallel va o'zaro bog'langan holda borishi kerak. Bundan dialog va monolog nutqni tinglab tushunishni o'rgatish ham ana shu yo'sinda amalga oshirilishi lozim, degan xulosa kelib chiqadi. Ikkinchi bosqichni vazifasi og'zaki tushunish bilan bog'liq ko'nikmalarni shakllantirishni davom ettirishdan iborat bo'lgan o'rta sinflar tashkil qiladi, chunki bu sinflarda yangi til materiali intensiv ravishda to'plana boradi, shuning uchun uning bazasida yangi materialni defferensiallash ko'nikmasini, uni yangi kontekstda taniy olish hamda tushunish va hokazolarni shakllantirish zarur. Bu bosqichning boshqa bosqichlardan farqi shundan iboratki, unga tasviriy tekstlardan tashqari hikoya tekstlari, qiziqarli hikoyalar ham kiradi.

Xulosa

Shu tariqa tinglab tushunish ko'nikmalari nutq faoliyatining bosqichlariga ko'ra quyidagicha ifodalaiadi: 1-bosqich—og'zaki tushunish bilan bog'liq ko'nikmalarni





ko'proq rivojlantirish; 2-bosqich—og'zaki va predmetlimantiqiy tushunish bilan bog'liq ko'nikmalarni baravar o'stirish; 3-bosqich— predmetli mantiqiy tushunushni belgilaydigan ko'nikmalarni ko'proq o'stirish. Ana shu bosqichlar o'rtasida ma'lum bog'lanish borligi—har bir bosqich o'quvchilarni keyingi bosqichga tayyorlashi ko'rinib turibdi.

Adabiyotlar ro`Yxati

1. Sayfullaeva R., Mengliev B., Boqieva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent: 2007.
2. Mengliev B. O'zbek tilidan universal qo'llanma. –Toshkent: 2010.
3. Pedagogika. Darslik. R. Mavlonov tahriri ostida. –Toshkent: O'qituvchi, 2001.
4. Pedagogik kvalimetriya moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. – Toshkent, 2015.
5. To'raqulov O. X. Ta'limni boshqarishda maqsadlar ketma-ketligiga erishish. "O'qitishning yangi pedagogik texnologiyalari". – Toshkent: 2001.

